

## HAQIQIY SHE`R

Shaxzoda Bunyod qizi Abdullayeva

Samarqand viloyati, Urgut tumani 64-maktab

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7458739>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O`zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusufning xalqchil , xalq og`zaki ijodiyotiga yaqin bo`lgan sodda she`riyatining naqadar qudratli vosita ekanligidan darak beruvchi hayoti va ijodiga oid kamtarinlik jarayonlarni o`z ichiga olgan maqola hisoblanadi.

**Kalit so`zlar:** Muhammadga maktub , Ko`klamoyim , Qobusnama , G`omiz.

## НАСТОЯЩАЯ ПОЭМА

**Аннотация.** Данная статья представляет собой статью, содержащую скромные процессы, связанные с жизнью и творчеством Народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа, которая показывает, насколько мощным инструментом является его простая поэзия, близкая к народному творчеству.

**Ключевые слова:** Письмо Мухаммаду, Кокламаим, Кабуснама, Гомиз.

## REAL POEM

**Abstract.** This article is an article containing humble processes related to the life and work of Muhammad Yusuf, People's Poet of Uzbekistan, which shows how powerful a tool his simple poetry, which is close to folk art, is.

**Key words:** Letter to Muhammad, Ko`klamayim, Kabusnama, Gomiz.

O`zbekiston xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusuf o`z she`rlarining xalqonaligi , yuraklar tubida abadiy sharora misol yonib turishligi bilan e`tirofimiz markazida hisoblaanadi uning she`rlaridan tog`-u toshlarga urilib oqayotgan shalolaning ovozini tuyasiz go`yo xalqdan olib xalqning o`ziga adabiyotning eng xolis va samimi , jaydari yo`llari orqali xalq qalbiga she`rlari shu darajada tegdikiy o`zbek xalqi uning she`rlari og`ushida muhabbat , mehr va o`zligini his etdilar , O`zlarini har jumlada topib olaverdilar shundan biz haqiqiy she`r qanaqa bo`lishligini chuqur angladek .

Muhammad Yusuf she`riyati samimiyatga boyligi bilan orombaxsh hisoblanadi she`rlarini o`qigan kishi qalbida tuyqusdan “o`z boshdan kechirgan” larini topib olib oshkora muhabbat tug`ilgan bo`lishi hech gap emas xalqimiz tilida bir gap yuradi “Ketmoni uchgan” haqiqatda Muhammad Yusufning ketmoni uchgan edi uning kabi muhlislarga boy bo`lgan shoir kamdan kam hisoblanadi barchasiga xalqning o`z ichida yurgan so`zlarning she`r bo`lganligi o`zbek xalqnining yuksak me`roslari bo`lgn O`zbek xalq og`zaki ijodi namunalarining ifori uning she`rlarida ham barq urib turgani alohida ahamiyat kasb etadi . ammo Muhammad Yusuf qisqa umr guzoronligi ichida jaydari hamda kamtarona hayot kechirdi u hech qachon “Ketmoni uchishini “ ko`zlab she`r yozmas faqatgina qalbiga topinib yozganlari sevimli bo`lib ketaverardi she`rlarining mavzusi Ona, vatan va ishq mavzusida bo`lib eng kamtar jumلالар joy olardi “Muhammadga maktub “ she`rining yakunida shunday jumlalarga tilga olingankiy yuraklar faoliyati o`zgacha tus olishiga undaydi ushbu so`zlar:

Vatan desang o`pkang to`lib ketmasa ,

She`r yozishga balo bormi, birodar .

Aziz o`quvchi ushbu so`zlarga izoh bildirishga ojizman sizning qalbingizda favqulodda nelar ro`y bergenligini o`zingiz o`zingizga oshkor eting chunki kimgadir oshkor etishga sizning ham tilingiz ojiz ekanligini anglab turibman .

Ustozning “Osmoning oxiri” dostonida “haqiqiy she`r” haqida quydagicha so`zlar injudek tovlanib turadi. Ularni taqdim etsak .

Bilib turib birovga ozor berishdan yomoni yo`q . o`zing ham bilmasdan birovga yaxshilik qilishdan ortiq yaxshilik yo`q.

She`r yozish ham o`zing bilmay birovga yaxshilik qilishdek gap .

Haqiyqiy she`riyat hamisha oyoq ostida. Misralar qulunlar kabi tuproqqa ag`anab yotishibdi. Tur, toychoq chopamiz desang bas . Biz har zamon bir oyoq ostiga boqib she`r topamiz. Keyin uning changini qoqamiz va qancha ko`p qoqsak -shuncha she`r yo`qotamiz ...

Barcha buyuk zotlarning buyukligi ham xokisorlgidadir .

Muhammad Yusuf bilan jurnalistlar suhbat olib borganda ustozi shoir savollarga shunday javob qaytaradi .

-Vaqtingizni ko`proq nimalarga sarflaysiz ?

-Ko`proq kitob o`qiyman. Boburni, Mashrabni, Bedilni sevib mutolaa qilaman . Anna Axmatova, Sergey Yesenin kabi rus shoirlarini , Hozirgi she`riyatimizdan Abdulla Oripovni ko`p o`qiyman .

- Ijodingizdan o`zingiz rozimisiz ?

- Yo`q. Lekin men ijodni juda yuksak qilib ko`rsatishni ham xohlamayman. Negaki, bu ham oddiy mehnat . Novvoy non yopoyotganday, cho`pon qo`yini boqayotgandek , siz qalbingizdan so`z so`rab odamlarga tarqatasiz. Bu-shoirning kundalik vazifasiday bo`lib qolgan. U she`rga qo`l urmasdan turolmaydi.

Yana suhbat davomida...

-She`rni nimalardan izlaysiz ?

-Men she`rni faqat ko`chadan izlab , ko`chadan topaman . Kitob o`qib she`r yozmayman . Kitobdan nasr topish mumkindir , kitob o`qib olim bo`lish mumkindir , ammo haqiyqiy she`r - odamlar orasida . ularni ko`ngil ko`zi bilan qog`ozga tushira bilish kerak .

-Ijodingizda soddalik , jaydarilik yaqqol sezilib turadi . Bu ruhiyatizingizga , tabiyatingizga bog`liqmi ?

- Albatta , bog`liq . O`zi hayotda ham shundayman . jimjimador , balandparvoz so`zlarni yomon ko`raman . So`zni borligicha ifoda etsam deyman . Uning ustidan bo`yoq surkash mutlaqo ortiqcha . Qanday so`z bo`lmasin , o`rnida ishlatilsa , soddalik va ravonlik o`z-o`zidan paydo bo`ladi. To`g`ri so`zlarni bezab , haddan tashqari go`zal qilish mumkin , lekin uni otangiz , onangiz tushunmasa , nima keragi bor ?

Men shunday deb o`ylayman.

Muhammad Yusuf lola-qizg`aldoq, binafshalarga o`zgacha mehr bilan qo`l tekgizib ko`zlarini uning yaproqlariga surdi gullarni , yulduzlarni singlis singari bilib misralarida maqtab ardoqladi

Buyuk adabiyotimiz vakili , tanqidchilik makatabining yirik ustuni Ozod Sharaffiddinov uning she`rlari haqida shunday deydi:

Muhammadning she`rlari bir qarashda juda sodda , jo`n yoziladiganga o`xshab tuyiladi . Ammo unga o`xshab yozib ko`ringchi ? qo`lingizdan kelmaydi ! Uning oson yoziladiganga o`xshab ko`ringan misralari muhlislarni yig`latdi, kuldirdi, o`z og`ushiga tortib oldi.

Odamlar uning she`rlarini hayajonsiz o`qimaydigan , kitoblarini do`konlardan qidirib yuradigan bo`ldilar .

Muhammad Yusuf xudo bergen qobilyat egasi ekanligiga o`zim guvoh bo`lganman . Bir davrada Cho`lponing “ Ko`klam” she`ri to`grisida gap bordi. U mening ta`rifimdan ta`sirlanib ketdimi , ichkari xonaga kirib ketdi-da, 10-15 daqqa o`tgach chiqib qo`limga, “Ko`klamoyim” she`rini tutqazdi.Uni menga bag`ishlaganini aytди. She`rini o`qib ko`zimdan yosh chiqib ketgandi o`shanda.

Keng qamrovga ega bo`lgan , barchamiz uchun tarbiyz mezonlari kitobi hisoblangan Kaykovusning “Qobusnama” asari shoirlik rasmi zikriga bag`ishlangan o`ttiz beshinch bobida ushbu jumlalar bitiladi:

Ey farzand agar shoirlik qilmoqchi bo`lsang , harakat qil, toki so`zing oson va foydali bo`lsun, G`omiz ( tushunulmaydigan va noaniq) so`zdan parhez qilg`il va o`zing bilib , o`zgalar uning sharhiga muhtoj bo`lg`udek so`zni aytmag`il , nedinkim, she`r aytg`on kishi xalq uchun aytur va o`zi uchun aytmas.

Shunday ekan jimjimador so`zlarni topib so`zni ortiqcha bezashga nedarkor zero ketmon ham doim xokisor yerdan uchadi ko`kdan emas.

#### **REFERENCES**

1. Muhammad Yusuf “Xalq bo`l , elim” she`riy to`plami “O`zbekiston” nashiryoti. Toshkent -2019. 170-bet
2. Shukur Qurbon . “Muhammad Yusuf saboqlari” A.Navoiy nomidagi “O`zbekiston Milliy kutubxonasi” nashiryoti . Toshkent-2012 .10-12-18-19 betlar .
3. Kaykovus “Qobusnoma” , “O`qituvchi “ nashiryot-Matbaa ijodiy uyi , Toshkent -2019. 193-bet.